

**O`QUVCHILARDA KASB TANLASHGA TA`SIR ETUVCHI
OMILLAR VA SHAXS MOTIVLARI**

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti

Pedagogika va Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Usmonova Nargizaxon

Qo'qon universiteti psixologiya(amaliy)

yo'nalishi 4-kurs talabasi

Muhammadjonova Muslimaxon

Annotatsiya: Har bir yosh avlodning jamiyatdan o'z o'rnini topa olishi munosib hayot tarziga erishishi uchun albatta ularning egallagan kasblari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezisda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, har bir o'quvchining individual- psixik xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda to'g'ri kasb tanlay olishlari va o'quvchilarning kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillari haqida shuningdek o'quvchilarning kasb tanlashdagi motivlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, kasb tanlash motivlari, kasbga yo'naltirish, A.E. Golomshtokning “qiziqishlar kartasini”, E.A. Klimovning Defferensial- diagnostik so'rovnomani, B.A. Fedorshenning “Kommunikativ va tashkiliy qiziqishlar”.

Kirish:

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.¹ Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan ushbu fikr va ishonchdan anglashimiz mumkinki, har bir davlatning kelajagi bu uning yoshlaridir. Yosh avlod qanchali bilimli, aqilli, salohiyatli va albatta o'z kasbining yetuk mutaxasisi bo'la olishlarimiz rivojlanayotgan davlatimizning qay darajada rivojlanishini, ertasini belgilab beradi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>
www.tadqiqotlar.uz

desak adashmagan bo'lamiz. Shu sababdan bugungi kunda yoshlarga doir siyosat davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda va davlatimizda yoshlar uchun barcha eshiklar keng ochilmoqda. So'zimiz isboti uchun aytishimiz mumkinki, yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) va chet tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida yoshlarning chet tillarini o'rganish va kasb egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularni ichki va tashqi mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlarda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish² to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinganli yoshlarimizga ochilayotgan imkoniyat eshiklaridan biridir. Ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda yoshlarimiz yaxshi o'qib o'rganib, jamiyatdan munosib o'rin egallashlari lozim. Yoshlarni jamiyatdan munosib o'rin egallashlarida esa ular tanlagan kasb muhim ahamiyat kasb etadi. Demakki kasb tanlash jarayoni yoshlar uchun eng ahamiyatli va dolzarb bo'lgan masalalardan biridir. Shu o'rinda kasb tanlash jarayoni bu qanday jarayon degan savol yuzaga keladi. Kasb tanlash bu ijtimoiy foydali jarayon hisoblanib har bir o'quvchining o'zi tanlagan kasbi orqali jamiyatga qo'sha olishi mumkin bo'lgan hissasi hisoblanadi. Bunday tashqari o'quvchilarning kasb tanlash jarayoni insonni o'zini anglash jarayoni bilan bog'liq sanaladi. Negaki har bir bola o'zini katta bo'lib borishini anglaydi va kelajak hayotida ma'lum bir kasb yoki hunarni egallashi va bu bo'yicha ishlashi, faoliyat yuritishi zarurligini sezib boradi. Bu tanlagan kasbi esa har bir insonni har tomonlama qoniqtirishi, ehtiyojlarini qondira olishi va kelajak hayoti uchun asos bo'lishini anglashi tufayli yuz beradi. Kasb tanlash bu o'ziga xos bo'lgan murakkab jarayon bo'lib, u inson va uning psixologik, fiziologik, ijtimoiy va moddiy imkoniyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Kasb tanlash shunday jarayonki, uning ortida insonning moddiy- manaviy ehtiyojlari, manfaatlari shuningdek qiziqishlari va qobiliyatlari, o'ziga xos psixologik xususiyatlari bilan bog'liq holda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan jarayondir. Demakki, bunday ko'rishimiz mumkinki, har bir kasb tanlovchi yoki egallovchi insonga psixologik xususiyatlarini inobatga olgan

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.04.2024 yildagi 213-son.

holda individual yondoshish kerakligini anglatadi. Kasb tanlovchi yoki egallovchi har bir o`quvchining kasb tanlashlariga ko`pgina omillar o`z ta'sirini ko`rsatadi. Bunda birinchi navbatda har bir o`quvchining kasbga bo`lgan ehtiyoji, hohishi, uning motivlari, layoqati, qiziqishi, iqtidori va qobiliyati kabilar turadi. Yana shuni ham ta`kidlab o`tish joizki, kasb bu inson hayotining teng yarmini egallovchi insoning bir umrlik hamrohidir. Shunday ekan har bir o`quvchining o`z manfaat va ehtiyojlari shuningdek kasbga doir layoqatini inobatga olgan holda kasb- hunarni egallashi juda ham ahamiyatli va dolzarb bo`lgan masalardan biridir. O`quvchilar tomonidan biror bir kasb-hunarni tanlash yoki egallash uning bilimlaridan kelib chiqqan holdagi motivlarga ham bog`liq bo`lishi mumkin. Shu o`rinda savol tug`iladi, motiv deganda nimani tushunamiz? Ko`plab psixolog olimlar tomonidan motivlar haqida juda ko`plab ta`riflar berib o`tilgan. Motiv lotincha so`z bo`lib *move* - harakatga keltiruvchi, undovchi degan ma`noni anglatadi. Motiv biror bir subyektning ehtiyojlarini yoki manfaatlarini qondirish bilan bog`liq holatda faoliyatga undovchi xatti – harakatlar hisoblanadi. Tashqi va ichki sharoitlarning yig`indisi sifatida subyektni ma`lum bir faoliyatga faolligini chaqiruvchi yo`nalishdir. Motivatsiya hayotiy muhim ahamiyatga ega bo`lgan tabiiy va ijtimoiy shart - sharoitlarga, jismlarga xulq - atvomi yo`naltiruvchi qo`zg`atuvchi tariqasida baholanishi mumkin. Insonni ehtiyojlaridan kelib chiqib uning ko`plab motivlarini ajratish mumkin. O`quvchilar ma`lum kasbni tanlash davomida maqsadlaridan kelib chiqqan holda yaqin, qisqa va yoki uzoq davom etadigan motivlarga duch keladilar. O`quvchilarni kasb-hunarni to`g`ri tanlashi va egallashi ularning hayotiy jarayonlarini to`g`ri tanlab olishiga juda katta ta`sir ko`rsatadi. O`quvchilarni o`ziga yoqqan kasbini o`z qiziqishi, iqtidori, ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda tanlab olishi o`z hayot yo`lini deyarli to`g`ri belgilaganligini bildiradi. Keling bu borada olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan tanishib chiqamiz. A.I.Gebos yoshlarni o`qishga bo`lgan ijobiy motivlarini o`rganib chiqdi va ularga quyidagilarni kiritdi:

- * o`qishning yaqin va oxirgi natijalarini anglashida;
- * o`zlashtirilayotgan bilimlarni nazariy va amaliy ahamiyatini anglashda;

- * o'quv materiallarini hissiy shakllarda tushuntirib berish;
- * Ilmiy tushunchalami "kelajak yo'nalishida" tushuntirib berish;
- * o'quv faoliyatini kasbiy yo'nalish asosida olib borish;
- * o'quv faoliyatida muammoviy holatlarni yuzaga keltiradigan vazifalarni tanlay olish;
- * o'quv guruhlaridagi qiziquvchilar va "bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik iqlimni" shakllantirishda.

Har bir o'quvchining kasb tanlanishda qaysi kasbga qiziqishini va nima uchun shu kasbni tanlaganini kasb tanlashdagi motivlarini bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Buning uchun alohida kartochkaga hukm tarzida tanlangan kasbni yoki o'qishni motivlarini yozib chiqish kerak. Bu yozib chiqilgan motivlarni o'quvchiga bo'lib chiqishni tavsiya etish kerak bo'ladi. Bu quyidagi tomonlarni o'zida aks etdirgan bo'ladi: a) o'zi uchun ahamiyatlilikiga qarab besh guruhga bo'lish; b) umumiy belgilardan o'zi uchun ahamiyatliroq bo'lgan 10 tasini ajratib olish. Bunda quyidagi motivlar sonini taqdim etishimiz mumkin bo'ladi.

1. O'quvchi yaxshi o'qishi kerak.
2. Men o'qituvchini aytganlarini aniq va tez bajarishga intilaman.
3. Men sinf oldida o'qishimga javob berishni tushunaman.
3. Maktabni tugatganimdan kegin men o'qishni davom ettiraman.
4. Yaxshi mutaxassis bo'lish uchun yaxshi bilimlarga ega bo'lish kerak bo'ladi.
5. Odamlar men bilan qiziqib muloqot qilishni xohlovchi inson bo'lmoqchiman.
6. Yaxshi baholar olmoqchiman.
7. O'qituvchi va ota - onamdan maqtovlar eshitmoqchiman.
8. Men sinfda yuqori reytingga ega bo'lmoqchiman.
9. Sinfning eng yaxshi o'quvchisi bolmoqchiman.
10. Meni javoblarim sinfda eng yaxshi javob bo'lishini xohlayman.
11. Darsdan tashqari meni qiziqtiradigan fanbo'yicha qo'shimcha darslar olmoqchiman.
12. Sinfni o'zimni yomon o'qishim bilan orqaga tortmoqchi emasman.
13. Yomon o'qishim uchun sinfda va uyda urushishlarni xohlamayman.
14. Yomon baholar olmoqchi emasman.
15. Menga matematika darslari yoqadi.
16. Menga tarix, adabiyot, til va boshqa fanlar yoqadi.
17. Menga o'qituvchini yangi fikrlar asosida darsni tushuntirib berishi yoqadi.
18. Dars yangi va qiziqarli bo'lishini xohlayman.
19. Qiyin masalalarni yechishni yoqtiraman.
20. Darsda

gapirilayotgan mavzu bo'yicha muhokama qilishni yoqtiraman. 21. Darsda qiyinchiliklarni yengib o'tishni yaxshi ko'raman. 22. O'qituvchi seni yutuqlaringni ko'rib, to'g'ri baholashini yaxshi ko'raman. 23. O'qituvchi har bir o'quvchini yutuqlarini ko'rishi bu juda yaxshi hodisa. 24. O'qituvchini darsni har xil tashkil etishi juda zo'r.

Bular asosida natijalar tahlilini quyidagicha ko'rishimiz mumkin:

1- 15- ijtimoiy motivlar

6 - 25 - o'quv motivlari

1 - 3 - javobgarlik va burch motivi

4— 6 - o'zini rivojlantirish va o'zini belgilay olish motivi

7 - 9 - o'z yutuqlarini oshirish motivi.

10 - 12 - obro4 motivi

13 - 15 - noqulaylikdan qochish motivi

16 - 18 - dars mohiyati motivlari

19 - 21 - o'quv jarayoni motivlari

22 - 25 - rag'batlantirish motivi.

Xulosa. Fikrimiz yakuni o'rnida aytishimiz mumkinki, davlatimizning ertasi bo'lgan bugungi kun yoshlari ularga ko'rsatilayotgan imkoniyatlardan va e'tibordan unumli foydalangan holda jamiyatdan munosib o'rin egallashlari va davlatimiz rivoji uchun munosib hissa qo'sha olishlari lozim. Buning uchun esa har bir o'quvchi o'z qiziqishlari, individual psixologik xususiyatlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda kasb tanlashi zarur. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillarni shuning kasb tanlashga doir motivlarni aniqlashda esa yuqorida keltirib o'tgan metodimizdan foydalanish mumkin. Bunday metod va metodiklar orqali kasbni tanlagan o'quvchini nima uchun shu kasbni tanlaganligi aniqlashimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek bunday metodikalar bilan kasbni to'g'ri tanlaganligi yoki kimlarningdir yoki nimalarningdir ta'sirida kasb tanlash amalga oshganligi bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Bunday tashqari yana ko'plab metodikalar orqali o'quvchilarning kasb tanlash motivlarini va kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashimiz mumkin bo'ladi. Bularga misol qilib quyidagi metodikalarni

keltirishimiz mumkin. , A.E. Golomshtokning “qiziqishlar kartasini”, E.A. Klimovning Defferensial- diagnostik so‘rovnomani, B.A. Fedorshenning “Kommunikativ va tashkiliy qiziqishlar”. O‘quvchilarning to‘g‘ri kasbni tanlay olishlari qolaversa ushbu kasbni etuk mutaxassisiga aylanib kelajakda jamiyatdan munosib o‘rin egallashlarida o‘quvchilarning ota-onalari, o‘qituvchilari va albatta maktab psixologlarining o‘rni juda katta. Ular tomonidan o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari to‘g‘ri amalga oshirilsa, aqilli va bilimli bo‘lgan yoshlarimizning ertangi kuni buyuk bo‘lishi va rivojlanayotgan davlatimizni tez vaqt mobaynida rivojlangan davlatlar qatorida ko‘rishimiz hech shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kasb psixologiyasi.o‘quv qo‘llanma.S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova.
2. Kasb psixologiyasi. darslik. F.R.Abdurahmonov, Z.E.Abdurahmonova. Toshkent 2016.
- 3.MUSLIMAXON IBROHIMOVA; NARGIZAXON USMONOVA. PEDAGOGIK JARAYONDAGI NEVROZLAR KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR MISOLIDA. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 578–580 bet, 2023. DOI: 10.54613/ku.v1i1.645.
4. Raximjonovna, U. N. (2023). O ‘SMIR YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O ‘QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O ‘RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232- 237.
5. Usmonova Nargiza Raximjonovna. (2024). TARBIYA FANINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY, 2(6), 256–259. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/3792>
6. Usmonova Nargiza, & Ilyosjonov Shahboz. (2024). FRUSTRATSIYA HOLATIDAGI O'SMIRLARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TO'G'RI BAHOLASH. Universitet tadqiqot bazasi , 519–526. 8. <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/download/54/43/86> 9.

<http://conferences.neasmo.org.ua/ru/art/491>

7.Usmonova Nargiza, & Ibrohimova Muslimaxon. (2024). O‘SMIRLIK DAVRIDAGI BOLALARNI KASBGA YO‘NALTIRISH ORQALI ULARDA IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH. University Research Base, 559–563. Retrieved from.